

"O'zkimyosanoat" AJ va tizim korxonalari Komplayens xizmatlarining 1-yarim yillikda amalga oshirilgan ishlari yuzasidan hisobot yig'ilishi o'tkazildi

// 22 July 2022 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/komplayens-xizmatining-birinchi-yarim-yillik-hisoboti>




"O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarda korrupsiyon omillarga chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Natijada korrupsiyaning oqibatlari bilan emas, balki uning sabablari bilan kurashish, barvaqt oldini olish va unga chek qo'yish maqsadida tegishli tadbirlar belgilab olindi.

Barcha tarmoq korxonalarida "Korrupsiyaga qarshi siyosat", "Axloq kodeksi", "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati" kabi 10 dan ortiq ichki me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va o'rnatilgan tartibda ularni amaliyotga tatbiq qilish ishlari amalga oshirilmoqda.



Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida komplayens nazorat tizimi "Navoiyazot" AJ, "Farg'onaazot" AJ, "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ, "Maksam-Chirchiq" AJ, "Ammofos-Maksam" AJ, "Birinchi rezinotexnika zavodi" MCHJ, "O'zkimyoimpeks" MCHJ va "Qo'ng'irotd soda zavodi" MCHJ QKlarida o'z faoliyatini yuritmoqda. "O'zkimyosanoatloyiha" AJ va "Qizilqum fosforit kompleksi" MCHJda esa mazkur tizimga xodimlar tanlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Hisobot davrida kimyo sanoati korxonalarida korrupsion xavf-xatarlarni aniqlash, o'g'rilik, talon-taroj qilish, korxonalar va davlat mulklarini o'zlashtirish va ta'magirlik holatlariga chek qo'yish maqsadida jami 31 ta xizmat surishtiruvini o'tkazildi, natijalari bo'yicha tegishli xulosalar tayyorlandi va aybdorlarga nisbatan tegishli choralar ko'rildi.



Natijada 23 nafar xodim jinoiy javobgarlikka tortildi, 17 nafar xodim egallab turgan lavozimidan ozod etildi, 12 nafar mas'ul xodimlarga hayfsan berildi, 16 nafar xodimning ish haqidani jarima undirildi, 9 ta holat bo'yicha to'plangan materiallar qonuniy chora ko'rish uchun huquq tartibot organlariga yuborildi.

Shuningdek, joriy yilning 1-yarim yilligida jami bo'lib 1,2 mlrd.so'm tovar moddiy boyliklari kamomadi, 17,1 mlrd.so'mlik tayyor mahsulotga qo'shib yozish holatlari aniqlangan. (2021-yil 1- yarim yilligida tovar moddiy boyliklari va mineral o'g'itlar kamomadi jami 59,8 mlrd.so'mni tashkil qilgan.)

Hisobot davrida tizim korxonalarida xaridlar jarayonining ochiq va shaffofligini ta'minlash hamda ularni "Davlat xaridlari to'g'risida" Qonuni talablariga muvofiq o'tkazilishini ta'minlanishi natijasida jami bo'lib 3,1 mlrd.so'mlik (2021-yilning shu davrida 1,6 mlrd.so'm) pul mablag'larining asossiz sarflanishining oldi olinib, iqtisod qilindi.

Lekin shunga qaramasdan, tarmoq korxonalarining mansabdor shaxslari tomonidan shartnomalar tuzish va imzolash, tayyor mahsulotlarni yuklab jo'natish jarayonida ma'lum miqdordagi pul mablag'lari talab qilish, turli xizmatlar yoki pora evaziga kelishish, ta'magirlik qilish yoki tovar-moddiy boyliklarini bozor narxlaridan qimmat narxlarda sotib olish holatlari uchrab turibdi.



Shuningdek, hisobot davrida "Farg'onaazot" AJning birgina Ammiak-3 sexida reaksiya quvurlarining talon-taroj qilinishi oqibatida 2,4 million AQSH dollari miqdoridagi kamomad aniqlanib, holat bo'yicha O'zbekiston Respublikasi DXX tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, Jamiyatning 9 ta mas'ul mansabdor shaxslariga nisbatan qamoq tarzidagi ehtiyot chorasi qo'llanilgan. "Maksam-Chirchiq" AJda 17,1 mlrd.so'mlik tayyor mahsulotga qo'shib yozish holatlari aniqlanib, DXX tomonidan qo'zg'atilgan jinoyat ishi doirasida 5 nafar mansabdor shaxsga qamoqqa olish ehtiyot chorasi qo'llanilgan va hozirda tergov ishlari davom etmoqda.

"O'zbekimiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati" talablariga muvofiq xizmat vazifasiga ko'ra korrupsiyaviy xavf-xatarlar ehtimoli yuqori va o'rta bo'lgan 2870 nafar xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risidagi deklaratsiyalar to'ldirildi.

Hisobot davrida jami 51 ta holat bo'yicha manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlar aniqlanib, hujjatlashtirilgan bo'lsa, 2021-yilning shu davrida 12 ta holat aniqlangan. Jumladan, "Maksam-Chirchiq" AJda 18 ta, "Navoiyazot" AJda 21 ta, "Farg'onaazot" AJda 6 ta, "Dehqonobod kaliy zavodi" AJda 3 ta va "Birinchi rezinotexnika zavodi" MCHJda 1 ta holatda o'zaro yaqin qarindoshlar bevosita qo'l ostida yoki rahbarligida ishlashi natijasida vujudga kelgan manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlandi. Mazkur holatlar yuzasidan mazkur jamiyatlar boshqaruv raislarining ko'rsatmalariga asosan ushbu xodimlarni korxonaning boshqa sexlariga va lavozimlariga o'tkazilishi bilan manfaatlar to'qnashuvining oldini olish choralari ko'rilmogda.

Tizim korxonalarida jami 584,3 mln. so'mlik tovar moddiy boyliklari talon-taroj qilinishining oldi olindi va aybdor shaxslarga ichki tartib-qoidalar asosida intizomiy choralar ko'rildi.

Hisobot davrida "Maksam-Chirchiq" AJ, "Farg'onaazot" AJ "Birinchi rezinotexnika zavodi" MCHJ va

"O'zkiyoipek" MCHJda xaridlarning ochiq va shaffofligi ta'minlashi natijasida jami 3177,3 mln.so'm mablag'larning iqtisod qilinishiga erishilgan.

Joriy yilda jamiyat va tizim korxonalarida xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida komplayens xizmati xodimlari va huquq-tartibot organlari xodimlari ishtirokida jami 186 ta tushuntirish-profilaktik tadbirlari amalga oshirilgan.

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi hamda shaffofligini ta'minlash maqsadida 2022-yil I yarim yilligi davomida ommaviy axborot vositalari va rasmiy veb-saytlari orqali sohaga oid jami 167 ta materiallar joylashtirilgan.

Jinoiy javobgarlikka tortilganlar:

"Maksam-Chirchiq" AJ xodimlari:

1. D. Zametov - "Maksam-Chirchiq" AJning Birja orqali xomashyo mahsulotlarini sotish va sotib olish bo'limi boshlig'i.
- 2.F. Tashmetov - "Maksam-Chirchiq" AJning Birja orqali xomashyo mahsulotlarini sotish va sotib olish bo'limi iqtisodchisi.
3. D. Yo'ldiyev - "Maksam-Chirchiq" AJning Birja orqali xomashyo mahsulotlarini sotish va sotib olish bo'limi muxandisi.

"Qo'ng'irotda zavodi" MCHJ QQ xodimlari:

4. A. Raimberganov - "Qo'ng'irotda zavodi" MCHJ QQ bosh direktori
5. A. Tajimuratov - "Qo'ng'irotda zavodi" MCHJ QK bosh direktorining 1-o'rinbosari - bosh muhandis.
6. A. Bekmuratov - "Qo'ng'irotda zavodi" MCHJ QK Ishlab chiqarish va texnika bo'limi boshlig'i
7. B. Darimbayev - "Qo'ng'irotda zavodi" MCHJ QK Tayyor mahsulotlarni sotish bo'limi boshlig'i
8. Ye. Xojimuratov - "Qo'ng'irotda zavodi" MCHJ QK Qadoqlash va kalsinatsiyalangan soda ombori bo'limi boshlig'i
9. J. Narbayev - "Qo'ng'irotda zavodi" MCHJ QK Qadoqlash va kalsinatsiyalangan soda ombori mudiri
10. G'. O'rinbayev - "Qo'ng'irotda zavodi" MCHJ QK Qadoqlash sexi ombor mudiri
- 11.D. Reyimbayev - "Qo'ng'irotda zavodi" MCHJ QK kalsinatsiyalangan sexi iqtisodchisi

"Navoiyazot" AJ xodimlari:

12. J. Mustafoyev - "Navoiyazot" AJ 910-sexi elektromontyori
 13. Sh. Koxorov - "Navoiyazot" AJ 910-sexi elektroliz apparatchigi
 14. U. Raupov - "Navoiyazot" AJ 910-sexi apparatchigi
 15. U. Temirov - "Navoiyazot" AJ 910-sexi apparatchigi
 16. A.Saidov - "Navoiyazot" AJ 910-sexi yuk tashuvchisi
 17. I.Hikmatov - "Navoiyazot" AJ 910-sexi yuk tashuvchisi
 18. E.Iskandarov - "Navoiyazot" AJ 56-sex boshlig'i
 19. Sh.Raximov - "Navoiyazot" AJ 56-sexi energetiki
 20. Sh.Fayzulloyev - "Navoiyazot" AJ 56-sexi elektromontyori
 21. S.Ravshanov - "Navoiyazot" AJ 56-sexi ishchisi
-

2.Ishdan bo'shatilganlar:

"Qo'ng'irotda zavodi" QQ MCHJ

1. B. Saparov - "Qo'ng'irotd soda zavodi" MCHJ QKning "Jamansoy" ohaktosh maydalash va saralash sexi boshlig'i

"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ xodimlari:

2. B. Boynazarov - "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari

"Farg'onaazot" AJ xodimlari:

3. G. Rasulov - "Farg'onaazot" AJ Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'limi xodimi
4. F. Jaloldinov - "Farg'onaazot" AJ Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'limi xodimi
5. S. Boymatov - "Farg'onaazot" AJ Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'limi xodimi
6. A. Yuldashev - "Farg'onaazot" AJ Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'limi xodimi

"Birinchi rezinotexnika zavodi" MCHJ xodimlari:

7. Sh. Nishonova - "Birinchi rezinotexnika zavodi" MCHJ Mehnat va ish haqini tashkil etish bo'limi tabelchisi
8. F. Abdujalilova - "Birinchi rezinotexnika zavodi" MCHJ Mehnat va ish haqini tashkil etish bo'limi tabelchisi

"Navoiyazot" AJ xodimlari:

9. S. Axmedov - "Navoiyazot" AJ Savdo bo'limi boshlig'i o'rinbosari
10. N. Kondrikova - "Navoiyazot" AJ 091-sex boshlig'i
11. A. Hazratov - "Navoiyazot" AJ 703-sex ombor mudiri
12. X. Eshev - "Navoiyazot" AJ 36-sexining teplovoz mashinisti
13. Z. Xudoyberdiyev - "Navoiyazot" AJ 37-sexining yuk ortuvchi haydovchisi
14. M. Babayarov - "Navoiyazot" AJ 911-sexining ta'mirlovchi chilangari
15. Sh. Djurayev - "Farg'onaazot" AJning Loyihalash bo'yicha yetakchi muhandisi
16. B. Mamasidikov - "Farg'onaazot" AJ Elektr ta'minoti sexi elektromontyori
17. K. Imomov - "Farg'onaazot" AJ Xlorat magniy defolanti sexi qadoqlash xodimi.

3. Hayfsan va ogohlantirish e'lon qilinganlar:

"Farg'onaazot" AJ xodimlari:

1. D. Tursunov - "Farg'onaazot" AJ Temir yo'l sexi boshlig'i
2. A. Isakov - "Farg'onaazot" AJ Yuklarni jo'natish sexi boshlig'i
3. X. Abdullayev - "Farg'onaazot" AJ Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'limi smena boshlig'i
4. N. Ibroximov - "Farg'onaazot" AJ Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'limi smena boshlig'i yordamchisi
5. D. Axadov - "Farg'onaazot" AJ Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'limi o'qchisi
6. B. O'rmonov - "Farg'onaazot" AJ Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'limi o'qchisi

"Birinchi rezinotexnika zavodi" MCHJ xodimlari:

7. J. Azizov - "Birinchi rezinotexnika zavodi" MCHJ Iqtisodiyot va mehnatni tashkil etish bo'limi boshlig'i
8. O. Illarionova - "Birinchi rezinotexnika zavodi" MCHJ Mehnat va ish haqini tashkil etish bo'limi yetakchi muhandisi
9. E. Kurtseitova - "Birinchi rezinotexnika zavodi" MCHJ Xodimlar bilan ishlash bo'limi muhandisi

"Dehqonobod kaliy zavodi" AJ xodimlari:

10. A. Xakimo v - "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ Markaziy ombor mudiri

"Maksam-Chirchiq" AJ xodimlari:

11. V. Urinboyev - "Maksam-Chirchiq" AJ Axborot kommunikatsiyalar texnologiyasi boshqarmasining muhandis-elektronigi
 12. G. Meraimova - "Maksam-Chirchiq" AJ Avtotransport sexi iqtisodchisi;
-

Ish haqidan jarima undirilgan:

"Maksam-Chirchiq" AJ xodimlari:

1. A. Jurabekov - Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'linmasining guruh boshlig'i;
2. S. Imomxusanova - Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'linmasining nazorat o'tish joyi nazoratchisi;
3. G. Davlatova - Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'linmasining nazorat o'tish joyi nazoratchisi;
4. I. Diberdiyev - Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'linmasining kinologiya xizmati xodimi;
5. A. Aytbayeva - Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'linmasining nazorat o'tish joyi nazoratchisi;
6. A. Tuxtayev - Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash bo'linmasining nazorat o'tish joyi nazoratchisi;
7. Ye. Bugayeva - Nazorat o'lchov asboblari va avtomatlashtirish sexining hisoblash bo'limi nazorat o'lchov asboblari va avtomatika bo'yicha chilangari;
8. O. Asomova - Tibbiy rehabilitatsiya markazi xodimi;
9. Z. Ashurova - Butlash(komplektatsiya) sexining ombor mudirasi;
10. A. Abdushukurov- Ammiak ishlab chiqarish sexining nasos qo'rilmalari mashinisti;
11. U. Xasanov - Markazlashtirilgan energiya uskunalarini ta'mirlash sexining texnologik sexlarda elektr jihozlarini ta'mirlash bo'yicha elektr chilangari;
12. B. Rismetov - Sanoat oqova suvlarini tozalash va neytralash sexining ishchisi;
13. X. Shermatov - Texnologik uskunalarni markazlashgan ta'mirlash sexining boshlig'i
14. D. Rasulov - Texnologik uskunalarni markazlashgan ta'mirlash sexining energetigi
15. L. Fettayeva- Texnologik uskunalarni markazlashgan ta'mirlash sexining hisobchisi;
16. A. Jumatayev- Ammiakni suyultirish sexi ishchisi.

(Qonunchilik talablari va aybsizlik prezumpsiyasiga binoan tergov va sud jarayonlari davom etayotgan mas'ullar va xodimlar haqidagi ma'lumotlar ko'rsatilmagan)